

**BOSHLANG'ICH SINFDA TA'LIMNING ZAMONAVIY
TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Ilmiy rahbar: Ramazonova Mohchehra Sodiq qizi
Qo`qon universiteti, Ta`lim kafedrasi, Katta o`qituvchisi
Mohichehraramazonova07@gmail.com*

*Aminova Dilshoda Qurbanali qizi: Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 3-kurs
talabasi
Aminovadilshoda95@gmail.com*

Annotatsiya: Bugungi kunda bizga ma'lumki, axborot texnologiyalari va ularidan foydalanish zamon talabi darajasiga chiqdi. Shu o'rinda, ushbu maqolada boshlang`ich ta`lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usul va ko'nikmalarini keng ko'lamda yoritilgandir.

Abstract: Today, as we know, information technologies and their use have reached the level of the demand of time. Here, in this article, the methods and skills of using modern technologies in the process of primary education are widely covered.

Аннотация: Сегодня, как мы знаем, информационные технологии и их использование вышли на уровень требования времени. Здесь, в этой статье, широко освещены методы и навыки использования современных технологий в процессе начального образования.

Kalit so'zlar: ta`lim, tarbiya, ilmiy yondashuv, pedagogik mahora, kompyuterlar, zamonaviy texnologiyalar.

Key words: education, upbringing, scientific approach, pedagogical skills, computers, modern technologies.

Ключевые слова: образование, воспитание, научный подход, педагогическое мастерство, компьютеры, современные технологии.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining vujudga kelishi, ta’limning ilk

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog‘liq. Individual ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo‘lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan edi. O‘qituvchi bir o‘quvchi bilan ishlab, ta’limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O‘qituvchi matnlarni o‘qib bergen yoki bolalariga o‘qitib so‘zlatgan. Qoida va ta’riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo‘llari bilan bolalar hayot, san’at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o‘zlashtirgan. Keyinchalik individual ta’lim o‘rnini guruhlar asosida o‘qitish egallagan. O‘rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og‘zaki savol-javob, yuqori pog‘onalarda esa ma’ruza, munozara ta’limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib, yangi texnogiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.¹

1. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish. Pedagogika o‘z metodlarini yo‘q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari sifatida foydalananadi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik

jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, bolalarning xulq-atvorini rag‘batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarini quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o‘quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

2. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari – ishontirish, talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir. O‘zaro hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi.

Ishonch 3 tarkibiy qismidan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor.

¹https://www.researchgate.net/publication/360280002_Boshlang'ich_sinfлarda_o'quv_jarayonini_zamonaviy_innovatsion_texnologiyalar_asosida_tashkil_etish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

U tushunish – kechinma – qabul qilish orqali amalga oshadi. Ishontirish shakllari quyidagilar: ma‘ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko‘rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna. Pedagogik talab – ta‘lim-tarbiya jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli bo‘lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim.

Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag‘batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo‘llarini ta‘minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir. Istiqbol ta’sir

ko‘rsatishning juda ta’sirchan usuli bo‘lib, u bolalarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qo‘yish yo‘li bilan ta‘minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul mакtab o‘quvchilarida shaxsning eng muhum fazilatlaridan biri bo‘lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi. Rag‘batlantirish va jazolash tarbiyaning eng an‘anaviy usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya‘ni foydali xatti-harakatlarni qo‘srimcha rag‘batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to‘xtatishni ta‘minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta’sir ko‘rsatish yo‘lidan foydalaniladi. Rag‘batlantirish va jazolash metodi

o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganligi sababli uni qo‘llashda juda ehtiyoj bo‘lish lozim. Jamoatchilik fikri ta’sir ko‘rsatishning qudratli usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag‘batlantirib borishni ta‘minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to‘liq amalga oshiradi. Pedagogik

ta’sir ko‘rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. Pedagogik ta'sirning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. Respublikamiz istiqlolga erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo'iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsga katta hurmat ko'rsatiladi. Bu shaxsga bo'lgan talablarni va ungabo'lgan izzat-hurmatni birga qo'shish – ikki xil zarur shart bo'lib, pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatidir.

Zamonaviy texnologiya.

Ta'limda ijobjiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamenti kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p: o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqtin qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o'quvchilarining ishlash sur'ati jadallahadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanadi; o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi.

Kompyuterli ta'lim jarayonida ta'lim o'quvchi va kompyuter orasidagi munosabatlarga ko'ra tashkil etiladi, boshqariladi, nazorat qilinadi. Kompyuterli ta'limni tashkil etish – o'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni kompyuter vositasida yo'lga qo'yish. O'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni tashkil etish uchun ta'lim loyihalanadi. O'quvchilarining o'quv ishlarini tashkil etish, ular faoliyatini rag'batlantirish tegishli vositalar asosida modellashtiriladi.

Ma'lumki, ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchilarining hamkorligidagi faoliyat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

turi bo‘lib, dars orqali o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida esa o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma’lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyatga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilganligi xech kimga sir emas.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi dastlab:

- Darsning maqsadi;
- Maqsadga erishish yo‘llari;
- O‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
- O‘qitish metodlari;
- O‘quv topshiriqlarining turlari;
- Muhokamalar uchun savollar;
- Munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- O‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiriшда ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy me’roslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o‘ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma’lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Albatta, ta’lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya’ni axborot

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'tkazish, jumladan, dars mashg'ulotlarida multimediani qo'llash, internet tarmog'idan foydalanish shubhasiz o'z samarasini beradi. O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin: - Boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi; - Ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi; - Namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi; - O'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi; - O'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi; - O'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalg etilishi yotadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsning an'anaviy darsdan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishida ko'rindi.

Bu imkoniyat o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhitini yaratishidadir. O'qitishning turli texnologiyalari pedagogik o'yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, o'quvchilarda o'qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko'nikmasini shakl-lantiradi. O'quvchilarda zamonaviy ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishning mohiyati-

mazmunini tushuntirish, ularda muay-yan tasavvurlarni hosil qilishga erishish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o‘qituvchi emas, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko‘zda tutilgan maqsad amalga oshirishi va natijali bo‘lishini rejalashni o‘qituvchi o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ramazonovich, K. S. (2023). BASKETBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY VOSITA SIFATIDA HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ,
2. Ramazonova, M. S. (2023). BADMINTON: HISTORY OF ORIGIN, DEVELOPMENT STAGES, TYPES, GAME RULES. Scientific Impulse, 1(9), 837-843.
3. Orlova, K. V., Fedyanin, M. Y., Simanenkov, K. E., Dergunov, A. S., Goldshmidt, P. R., Saydullaeva, A. F., ... & Demidov, L. V. (2022). Real-world efficacy of the first line therapy with prolgolimab in patients with metastatic melanoma: interim results of the FORA (FOrteca Real practice Assessment) observational study. Journal of Modern Oncology, 24(4), 413-425.
4. Ramazonova, M. S. (2023). VOLEYBOL SPORT TURINI O‘RGATISH VA UNING MOHIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 881-886.
5. Ramazonova Mohichehra Sodiq qizi "O‘quv qöllanma" Jismoniy tarbiya va sport ", Buxara Durdonashryoti.
6. Azizzoxjayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T. 2006.
7. B. Ziyamuhamedov, M.Tojiyev "Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o‘zbek milliy modeli".
8. Zagvyazinkiy VI O‘qitish nazariyasi: Zamonaviy talqin. – M.: Akademiya, 2001. – 192b.